



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 1

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2026

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-1>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'affor**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Yosuke Shamoto**  
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)  
**Umarxonova Dildora Sharipxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nematov Jo'rabek Nematilloevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xusanov Ozod Tillabayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Peshkova Xristina Vyacheslavovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**Sung Un Lee**  
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ruziyev Rustam Jabborovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Borotov Mirodijjon Xomudjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**  
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)  
**Ahmad Issa Altweissi**  
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)  
**Mexmonov Kambariddin Miradxamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jason A.**  
Kanton Federal sud markazi (AQSH)  
**Borut Strazisar**  
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Gasanov Mixail Yuriyevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Denisov Gleb**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliyev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzayev Aziz**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Taxirov Farhod**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)  
**Qo'shayev Nurali Mahmudovich**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govxerjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

**1. Kutpiddinov Xusniddin Muxiddinovich**

ETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARNI JOYLASHTIRISH SHAKLLARINING HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....5

**2. Авлиякулова Матлуба Авазовна**

КОРПОРАТИВ-ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ.....13

**3. Раҳимкулова Лола Улуғмуродовна**

ИШ ТАШЛАШ БИЛАН БОҒЛИҚ МУНОСАБАТ СУБЪЕКТЛАРИНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ. ҚОНУНЧИЛИҚДА НАЗАРДА ТУТИЛГАН КАФОЛАТЛАР.....21

**4. Karimova Nigina Botirjon qizi**

YO‘QOLIB KETISH XAVFI OSTIDAGI YOYVOYI FAUNA VA FLORA TURLARINI MUHOFAZA QILISHDA VASHINGTON (CITES) KONVENSIYASINING HUQUQIY ANAMIYATI.....28

**5. Xakberdiyev Nurali Salaxiddinovich**

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING PROFESSIONAL FAOLIYATINI BELGILOVCHI OMILLAR.....35

**6. Turayev Jo‘rabek Shonazarovich**

JORIY SHAROITLARDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH FAOLIYATINING ILMIIY-NAZARIY TAVSIFI.....43

**7. Hojiyev Nosirjon Komilovich**

YO‘L HARAKATI VA TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH QOIDALARINI BUZGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....50

**8. Рузиев Маъруфжон Муртазаевич**

ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИНОИЙ ЖАЗОЛАРНИНГ ЛИБЕРАЛЛАШУВИ – ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ.....58

**9. Orakbayev Erpolat Temirbay ugli**

TERGOV SUDYASI INSTITUTI: SHAKLLANISH TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....65

**10. Husanboev Sardor Abdukarimovich**


YOSHLAR O‘RTASIDA EKSTREMISTIK TAHDIDLARNING PROFILAKTIK CHORATADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....72

**11. Xolmirzayev Muhsinbek Shavqiddin o‘g‘li**

KRIMINOLOGIK SIGNAL TIZIMI (REAL-TIME ALERTS): SUN‘IY INTELLEKT ASOSIDA JINOYAT XAVFINI OLDINDAN ANIQLASH VA PROFILAKTIKA QILISH MODELII.....82

**12. Курбонов Давлат Равшанович**

ШАХС ОЗОДЛИГИГА ҚАРШИ ЖИНОЯТ СОДИР ЭТГАН ШАХСНИНГ ИЖТИМОИЙ-БИОЛОГИК ТАВСИФИ.....87




**12.00.08-УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО**

**Hojiyev Nosirjon Komilovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi  
kurashish sho‘basi dotsenti vazifasini bajaruvchi,  
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
E-mail: n.hojiyev@tsul.uz

**YO‘L HARAKATI VA TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH QOIDALARINI  
BUZGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH  
MUAMMOLARI**

**For citation:** Khojiyev Nosirjon Komilovich. PROBLEMS OF IMPROVING CRIMINAL LIABILITY FOR VIOLATION OF ROAD TRAFFIC AND VEHICLE OPERATION RULES. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18509349>

**ANNOTATSIYA**

Mazkur ilmiy maqolada yo‘l-transport hodisalari natijasida yuzaga kelayotgan o‘lim va tan jarohatlari bilan bog‘liq huquqiy javobgarlik masalalari kompleks tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan institutsional va texnologik islohotlar statistik ma‘lumotlar asosida baholanadi. Jinoyat kodeksining 266-moddasiga oid qonun loyihasida nazarda tutilgan javobgarlikni yengillashtirish takliflari huquqiy adolat va jinoyat huquqi prinsiplari nuqtayi nazaridan tanqidiy tahlil qilinadi. Shuningdek, Yevropa davlatlari, AQSH va musulmon huquqi tizimlarida yo‘l-transport hodisalari bo‘yicha jinoiy javobgarlikni belgilashda ayb shakllariga beriladigan yondashuvlar qiyosiy-huquqiy usulda o‘rganiladi. Tadqiqot natijasida o‘rtacha og‘ir va og‘ir tan jarohati bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalari uchun jinoiy javobgarlikni saqlab qolish va jazo muqarrarligini ta‘minlash zarurligi asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** yo‘l-transport hodisasi, yo‘l harakati xavfsizligi, jinoyat huquqi, jinoiy javobgarlik, ehtiyotsizlik, qasddan sodir etilgan jinoyat, o‘rtacha og‘ir tan jarohati, transport vositalaridan foydalanish xavfsizligi, qiyosiy-huquqiy tahlil, jazo muqarrarligi.

**Хожиев Носиржон Комилович,**  
Исполняющий обязанности доцента сектора уголовное право,  
криминология ва противодействие коррупции  
Ташкентского государственного юридического университета  
Доктор философии по юридическим наукам (PhD)  
E-mail: n.hojiyev@tsul.uz

## ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НАРУШЕНИЕ ПРАВИЛ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ И ЭКСПЛУАТАЦИИ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ

### АННОТАЦИЯ

В данной научной статье проводится комплексный анализ вопросов уголовной ответственности, связанных с причинением смерти и телесных повреждений в результате дорожно-транспортных происшествий. На основе статистических данных оцениваются нормативно-правовые акты Республики Узбекистан, направленные на обеспечение безопасности дорожного движения, а также институциональные и технологические реформы, реализованные в последние годы. Критически анализируются предложения по смягчению ответственности, предусмотренные законопроектом о внесении изменений в статью 266 Уголовного кодекса, с точки зрения принципов уголовного права и правовой справедливости. Кроме того, с использованием сравнительно-правового метода исследуются подходы к определению форм вины при дорожно-транспортных происшествиях в правовых системах европейских государств, США и мусульманского права. По результатам исследования обосновывается целесообразность сохранения уголовной ответственности и обеспечения неотвратимости наказания за дорожно-транспортные происшествия, повлекшие причинение средней тяжести и тяжкого вреда здоровью.

**Ключевые слова:** дорожно-транспортное происшествие, безопасность дорожного движения, уголовное право, уголовная ответственность, неосторожность, умышленное преступление, вред здоровью средней тяжести, безопасность эксплуатации транспортных средств, сравнительно-правовой анализ, неотвратимость наказания.

**Khojiyev Nosirjon Komilovich,**

Acting Associate Professor at the Department of Criminal Law, Criminology  
and Anti-corruption of Tashkent State University of Law,  
PhD in Law

E-mail: n.hojiyev@tsul.uz

## PROBLEMS OF IMPROVING CRIMINAL LIABILITY FOR VIOLATION OF ROAD TRAFFIC AND VEHICLE OPERATION RULES

### ABSTRACT

This scientific article provides a comprehensive analysis of issues related to criminal liability for causing death and bodily injuries as a result of road traffic accidents. Based on statistical data, the study evaluates the regulatory legal acts of the Republic of Uzbekistan aimed at ensuring road safety, as well as the institutional and technological reforms implemented in recent years. Particular attention is paid to a critical examination of proposals to mitigate liability envisaged in the draft law amending Article 266 of the Criminal Code, from the standpoint of the principles of criminal law and legal justice. In addition, using a comparative legal method, the article examines approaches to determining forms of guilt in road traffic accidents within the legal systems of European countries, the United States, and Islamic law. The findings substantiate the necessity of maintaining criminal liability and ensuring the inevitability of punishment for road traffic accidents resulting in moderate and serious bodily harm.

**Keywords:** road traffic accident, road safety, criminal law, criminal liability, negligence, intentional crime, moderate bodily harm, vehicle operation safety, comparative legal analysis, inevitability of punishment.

### **Kirish**

Bugungi kunda yo‘llarda xavfsizlikni ta‘minlash, inson hayotini saqlash muhim hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab yo‘l-transport hodisalarida yiliga o‘rtacha 1,1 million inson halok bo‘ladi, 30 millionga yaqin kishi esa turli

darajada jarohat oladi. Shu bilan birga, avariylar 29 yoshgacha bo‘lgan shaxslar o‘limiga olib keluvchi asosiy sabablardan biri bo‘lib qolmoqda.

BMT hisobotiga ko‘ra, davlatlar tomonidan tegishli choralar ko‘rilmasa, 2030-yilga borib yo‘l-transport hodisalari o‘limning ettinchi asosiy sababi bo‘lib qolishi prognoz qilinmoqda. Bundan tashqari, hisobotda yo‘l-transport hodisalari jarohatlari aholi salomatligi va rivojlanishi uchun jiddiy oqibatlariga olib kelishi ta’kidlangan. Millionlab jarohatlangan odamlar kasalxonaga yotqizilishi, bu ularning oilalari va hukumatlari uchun katta tibbiy xarajatlarga olib keladi. Boquvchisi vafot etsa yoki jarohatlansa, daromadning yo‘qolishi ba’zi oilalarni qashshoqlikka olib keladi. Shunday qilib, past va o‘rta daromadli mamlakatlar yo‘l-transport hodisalari natijasida yalpi ichki mahsulotining 5% gacha yo‘qotishiga olib kelishi mumkin[1].

### **Zamonaviy transport va javobgarlik masalalari**

Jahonda transport vositalarining yangi turlari (haydovchisiz yoki rulsiz boshqariladigan elektromobillar) ishlab chiqarilayotganligi ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalari buzilganda javobgarlik masalasi qanday hal etilishi masalasida turli bahs munozaralar bormoqda.

Aksariyat olimlar transport vositasini ishlab chiqaruvchini javobgarlikka tortish lozimligini ta’kidlasa, aksariyati transport vositasini harakatga keltirgan shaxsni javobgarlikka tortish lozimligini ta’kidlashadi.

### **Material va metodlar**

Maqolada ilmiy-tadqiqot usullarining majmuasi qo‘llanildi. Avvalo, mavzu yuzasidan mavjud ilmiy adabiyotlar, qonunchilik hujjatlari va sud amaliyoti materiallari o‘rganilib, qiyosiy-huquqiy tahlil usuli qo‘llandi. Jinoyat obyekti va kvalifikatsiya mavzusida yurist olimlarning fikrlari induksiya va deduksiya usullarida tahlil qilinib, umumiy xulosalar chiqarildi. Xususan, Germaniya, AQSh, Yaponiya, Ispaniya, Polsha, Janubiy Korea hamda MDH davlatlarining jinoyat qonunchiliklari misolida qiyosiy tahlil o‘tkazildi – bu mamlakatlarda jinoyatlarni toifalarga ajratishda qanday obyekt belgilari inobatga olinishi o‘rganildi.

### **Asosiy qism**

Respublikamizda yo‘llarda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilib, mazkur soha muayyan darajada rivojlantirilmoqda.

Mazkur sohaga oid bir qator yangi normativ hujjatlar: 2024-yil 19-yanvardagi “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ–190-son “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 12-iyuldagi PQ–316-son “2022 — 2026 yillar davomida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummilliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2025-yil 4-dekabrda PQ–368-son “Toshkent shahrida transport tizimi boshqaruvini takomillashtirish hamda tirbandliklarning oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilindi.

So‘nggi yetti yil ichida hukumat yo‘llar va harakat xavfsizligi uchun 61 trillion so‘m mablag‘ sarflagan. Piyodalarni himoya qilish maqsadida yangi tizim va qoidalar ham joriy etildi. Xususan, ko‘plab hududlarda tezlik chegarasi 70 km/soatdan 60 km/soatgacha pasaytirildi. Shuningdek, kamera kuzatuv va nazorat kuchaytirildi. Shu yillar davomida hukumat yo‘l qoidalari kuchaytirdi — jumladan, ko‘plab hududlarda tezlik chegarasini 70 km/soatdan 60 km/soatgacha pasaytirdi (rasman 2023-yil 5-aprelda joriy etildi), shuningdek, kamera kuzatuvini va nazoratni kuchaytirildi.

Asosiy tashabbuslardan biri yangi “Xavfsiz yo‘l” dasturi hisoblanadi. Bu dastur xavfli yo‘l qismlarini yaxshilash, yaxshiroq yo‘l belgilarini o‘rnatish, yoritish vositalarini kuchaytirish va piyodalar zonalarini modernizatsiya qilish orqali yo‘l-transport hodisalarini kamaytirishga qaratilgan.

Yo‘l harakati xavfsizligi xodimlari elektron planshet va tana kameralari kabi zamonaviy vositalar bilan ta’minlandi, shuningdek, sun‘iy intellekt yordamida qoidabuzarliklarni avtomatik aniqlashning yangi tizimi joriy etildi. Bu texnologiyalar yo‘llarni yanada aniqroq nazorat qilish va inson xatosini kamaytirish imkonini beradi.

Poytaxtdagi tirbandlikni yanada kamaytirish maqsadida hukumat Intellektual transport tizimini ishga tushirishga tayyorgarlik ko‘rmoqda. Bu tizim Toshkent shahridagi 700 dan ortiq chorrahani birlashtiradi, svetofor, kamera va kuzatuv qurilmalarini yagona platformaga ulaydi. Real

vaqt rejimidagi trafik asosida signallarni moslashtirish orqali ushbu tizim tirbandlik va ehtimoliy yo‘l-transport hodisalarini 25-30 foizgacha kamaytirishi kutilmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yo‘l-transport hodisalari va qurbonlar soni kamaygan, biroq o‘zgarishlar juda ham katta emas. Bu barqaror yaxshilanish hukumatning e‘tibori kuchayishi, yangi qoidalar joriy etilishi, yo‘l harakati xavfsizligiga sarmoya kiritilishi va zamonaviy monitoring tizimlarining qo‘llanishi bilan uzviy bog‘liq. Biroq mintaqaviy ma‘lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yaxshilanish barcha hududlarda bir xil darajada ko‘zga tashlanmayapti. Yuqori xavfli hududlar — Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Farg‘ona va Samarqandda — hamon mamlakatdagi eng ko‘p yo‘l-transport hodisalari qayd etilyapti. Salbiy raqamlar ozgina pasaygan bo‘lsa-da, bu katta burilish yuz berganini ta‘kidlash uchun yetarli darajada sezilarli emas. Bu shuni anglatadiki, gavjum hududlardagi asosiy muammolar hali-hanuz jiddiy bo‘lib qolmoqda va doimiy e‘tiborni talab qiladi.

Biroq, yuqorida sanab o‘tilgan qonun hujjatlarining qabul qilinishi, amalga oshirilayotgan chora tadbirlar bugungi kunda sodir etilayotgan yo‘l-transport hodisalarini oldini olishga yetarli bo‘lmay, sodir etilgan yo‘l-transport hodisalari uchun javobgarlik va jazo choralarini kuchaytirishni, takomillashtirishni taqozo qiladi.

### **Munozara**

Respublikamizda 2021-yilda 10,001 ta yo‘l-transport hodisasi sodir etilib, ularda 9230 nafar fuqaro jaroxatlangan, 2 426 nafar fuqaro esa halok bo‘lgan.

2022-yilda 9 ming 902 ta yo‘l-transport xodisalari sodir etilgan. Yo‘l-transport xodisalari sodir etilishi natijasida 9606 nafar fuqaro jarohat olgan, 2356 nafari esa hayotdan ko‘z yumgan[2].

Shuningdek, 2023-yilda 9 ming 839 ta yo‘l-transport hodisasi sodir etilib, ularda 9 209 nafar fuqaro jarohatlangan va 2 282 nafar fuqaro halok bo‘lgan.

2023-yilda bolalar bilan bog‘liq 1 794 ta yo‘l-transport hodisasi sodir etilib, ularda 1 568 nafar bola jarohatlangan va 263 nafar bola halok bo‘lgan[3].

2024-yilda 9 ming 364 ta yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lib, ularda qariyb 8 931 nafar fuqaro jarohat olgan. Eng achinarlisi, 2 199 nafar odam halok bo‘lgan.

2025-yilda O‘zbekistonda rasman 9226 ta yo‘l-transport hodisasi qayd etilgan. 2025 yilda sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisalari natijasida 2 188 nafar inson vafot etdi. Bu ko‘rsatkich 2024 yilga (2 199 nafar) nisbatan kamaygan bo‘lsa-da, xotirjamlikka o‘rin yo‘q. Shuningdek, YTHlar natijasida 8 901 kishi turli darajada tan jarohati olgan (2024 yilda — 8 931 nafar).

YTHlar inson sog‘lig‘iga, oilalarga va mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Jarohat olganlarni davolash xarajatlari, shuningdek, insonlarning halok bo‘lishi yoki nogiron bo‘lib qolishi oqibatida mehnatga layoqatli aholi soni qisqarishi mamlakat yalpi ichki mahsulotining yillik 3–5 foizga kamayishiga olib kelgan holatlar qayd etilgan.

Tahlillarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, so‘nggi 5 yil (2021–2025) davomida YTHlar kamayish dinamikasi saqlanib qolmoqda. Bu aholi va transport vositalari soni oshganiga qaramasdan kuzatilmoqda. Xususan, aholi soni 2021 yildagi 35 271 276 nafardan 2025 yilda 38 232 254 nafarga, transport vositalari esa 3 821 869 tadan 5 532 396 taga oshgan.

Shunga qaramasdan, o‘tgan 5 yilda YTH oqibatida vafot etganlar soni har 100 ming aholiga nisbatan 6,9 tadan 5,7 taga, har 10 ming transport vositasiga nisbatan esa 6,3 tadan 4,0 taga kamaygani kuzatilgan.

Ta‘lim muassasalari atrofida va mahallalarda xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar natijasida bolalar ishtirokidagi YTHlar 2024 yilga nisbatan 171 taga (-9,6%), halok bo‘lgan bolalar soni esa 36 taga (-12,8%) kamaygan.

2024 yil yakunlariga ko‘ra, MDH davlatlarida har 100 ming aholiga nisbatan eng kam sodir etilgan YTHlar bo‘yicha O‘zbekiston Ozarbayjondan keyin 2 o‘rinni, o‘lim bilan bog‘liq YTHlar ko‘rsatkichi bo‘yicha esa 1-o‘rinni egallagan.

2025-yilda hududlar kesimida YTHdan eng ko‘p o‘lim holati Samarqand viloyatida kuzatilgan – 242 ta. Toshkent viloyatida 225 ta, Farg‘onada 199 ta va Surxondaryoda 167 ta o‘lim holati kuzatilgan.

2024-yil bilan taqqoslaganda YTHdan o‘lim holatlari Buxoro (+1), Farg‘ona (+3), Surxondaryo (+8), Qashqadaryo (+14), Xorazm (+40) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston

Respublikasida (+13) oshgan. Eng kam o‘lim holati kuzatilgan hududlar sifatida esa Sirdaryo (47 kishi), Navoiy (67 kishi) va Buxoro (72 kishi) viloyatlari qayd etilgan [4].

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yo‘l-transport hodisalari va qurbonlar soni kamaygan, biroq o‘zgarishlar juda ham katta emas. Bu barqaror yaxshilanish hukumatning e‘tibori kuchayishi, yangi qoidalar joriy etilishi, yo‘l harakati xavfsizligiga sarmoya kiritilishi va zamonaviy monitoring tizimlarining qo‘llanishi bilan uzviy bog‘liq.

Bundan tashqari, yurtimizda bunday hodisalar oqibatidagi zarar yalpi ichki mahsulotga nisbatan o‘rtacha 0,4 foizni tashkil qilmoqda.

YTHlarni oldini olish choralari ko‘rilayotganligiga qaramasdan, haydovchilar tomonidan belgilangan qonun va qoida talablarini bila turib, liberilizatsiya natijasida belgilangan jazolarni mensimaslik va unga amal qilmaslik holatlari ko‘payib bormoqda.

Bundan tashqari, aybdor shaxslar tomonidan jabrlanuvchiga yetkazilgan zararlarni qoplash, ularni davolash ishlariga befarqlilik bilan qarashlari natijasida jabrlanuvchilar tomonidan qonun talablariga ishonch holatlari susayib e‘tirozlar ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu bois JKning 266-moddasi bo‘yicha javobgarlik choralari kuchaytirilishi lozim deb hisoblaymiz.

2025-yil iyul oyida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi (ID:6370) qonun loyihasi muhokamaga qoyilgan[5].

Muhokamaga qo‘yilgan loyihaga nazar tashlasak, Jinoyat kodeksining 266-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan ya‘ni, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish natijasida kelib chiqqan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lgan qilmish uchun ma‘muriy javobgarlik belgilanishi taklif qilinmoqda. Shu kabi taklif JK 268-moddasi birinchi qismi uchun ham taklif qilinmoqda.

Amaldagi jinoyat kodeksining aksariyat moddalarida jinoiy harakat yoki harakatsiz natijasida badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Shunday qilmishlar uchun JKning 30 ga yaqin moddalar va uning qismlarida (qasddan sodir etiladigan qilmishlardan tashqari) jinoiy javobgarlik belgilangan.

Masalan, JKning 111, 116, 255, 256, 257, 257<sup>1</sup> 258, 259, 260, 262, 262<sup>1</sup>, 263, 266 va 268-moddalarini misol qilib keltirish mumkin.

Agar JKning faqat ikkita 266 va 268-moddalarida nazarda tutilgan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlik o‘rniga ma‘muriy javobgarlik belgilash taklif qilinayotgan ekan, bu JKning umumiy strukturasi ham, uning prinsiplariga ham, qolaversa, huquqning adolat va odillik mezonlariga ham zid hisoblanadi.

Ya‘ni, JKning 21 ta moddasida nazarda tutilgan qilmishlar natijasida badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazilishiga olib kelsa, ijtimoiy xavfli hisoblanib jinoyat deb topiladi. Yangi qonun loyihasidagi takliflarga ko‘ra esa, JKning faqat ikkita: 266 va 268-moddalarida nazarda tutilgan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazganlik ijtimoiy xavfli hisoblanmay, jinoyat deb topilmaydi.

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlasak, aksariyat davlat bunday turdagi jinoiy qilmishlarga qarshi kurashishda profilaktik chora-tadbirlardan tashqari jinoiy javobgarlik va jazo choralari kuchaytirishganini ko‘rish mumkin.

Masalan, Yaponiya JKning 124-moddasida yo‘l-transport hodisasi natijasida boshqa shaxsga tan jarohati yetkazganlik (tan jarohati turidan qa‘tiy nazar) uchun[6], Germaniya JKning § 315b-moddasida og‘ir bo‘lmagan oqibatga olib kelgan yo‘l-transport hodisasi uchun jinoiy javobgarlik belgilanan.

Litva JKning 246-moddasida mast holda transport vositasini boshqarayotgan shaxs tomonidan yo‘l harakati xavfsizligi qoidalarini yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish, natijada jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yetkazganlik uchun, Ispaniya va Polsha jinoyat qonunida esa, oqibat olib kelmasada, lekin yuqori xavf tug‘diradigan qoidabuzarliklar ham jinoyat darajasida kriminalizatsiya qilinganligini ko‘rishimiz mumkin.

Koreya jinoyat qonunchiligida maktab zonalarida sodir etilgan YTHlar deyarli og‘ir qasddan sodir etiladigan jinoyatlar (bosqinchilik, talonchilik) bilan tenglashtiriladigan darajada qat‘iy jazolar nazarda tutilgan.

Bizningcha yuqoridagi qonun loyihasi takliflariga qo‘shilmagan holda o‘rtacha og‘ir tan jarohatiga olib kelgan yo‘l-transport hodisasi uchun jinoiy javobgarlik o‘z kuchida qoldirish maqsadga muvofiq.

Amaldagi JKda transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlik moddaning bitta qismida belgilangan bo‘lsa, Qozog‘iston Respublikasi jinoyat kodeksining 345-moddasida [7], Qirg‘iziston Respublikasi jinoyat kodeksining 312-moddasida alohida qismlarida jinoiy javobgarlik belgilangan.

Bundan tashqari, ko‘plab rivojlangan davlatlar jinoyat qonunchiligida ham, jumladan, Gruziya jinoyat kodeksining 276-moddasida, Ozarbayjon Respublikasi jinoyat kodeksining 263-moddasida, Moldova Respublikasi jinoyat kodeksining 264-moddasida, Estoniya jinoyat kodeksining 204-moddasida, Latviya Respublikasi jinoyat kodeksining 260-moddasida yo‘l transport hodisasi natijasida yetkazilgan badanga o‘rtacha og‘ir va og‘ir shikast yetkazganlik uchun alohida qismlarda jinoiy javobgarlik belgilangan.

Shuningdek, Xorijiy davlat jinoyat qonunchiligida mazkur jinoyatning o‘rtacha og‘ir va og‘ir tan jarohati va o‘lim bilan bog‘liq holatlar ko‘rsatilgan qismlarini qat‘iy oldini olish uchun jazo muqarrarligini ta‘minlash maqsadida sanksiyalar kuchaytirilgan.

Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish bir qator xorijiy mamlakatlar Estoniya, Rossiya, Tojikiston, Latviya, Gruziya, Belarus, Moldova, Ozarbayjon va Qirg‘iziston qonunchiligida mazkur jinoyatlarning birinchi qismida o‘rtacha uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi, shuningdek mazkur jinoyatlarni takroran yoki mastlik holatida sodir etganlik uchun javobgarlik sanksiyalarini og‘irlashtiruvchi holat ekanligini inobatga olgan holda o‘rtacha uch yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi, shuningdek og‘irlashtiruvchi holatlarda (Takroran, og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lganda, ikki yoki undan ortiq inson o‘limiga sabab bo‘lganda Rossiya, Tojikiston, Belorussiya qonunchiligida) o‘n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum etish jinoiy jazolari belgilangan.

Xorijiy davlat taribasidan kelib chiqib, badanga o‘rtacha og‘ir va og‘ir shikast yetkazganlik uchun JKning 266-moddasining bitta qismida emas, bali alohida qismlarida belgilash hamda jazo choralarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 266-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning asosiy obyekti yo‘l harakati va transport vositalaridan foydalanish xavfsizligidir. Qo‘shimcha bevosita obyekt fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i hisoblanadi.

Mazkur jinoyat subyektiv tomondan yuz bergan oqibatlarga nisbatan aybning ehtiyotsizlik shakli bilan tavsiflanadi [8].

Shaxs transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buza turib, bu inson sog‘lig‘iga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazishi mumkinligini anglaydi, biroq ularning oldini olishiga asossiz ravishda ishonadi (o‘z-o‘ziga ishonish) [9]; transport vositasini boshqarayotgan shaxs transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzar ekan, qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqishi mumkinligiga ko‘zi yetmagan, lekin ko‘zi yetishi lozim va mumkin bo‘lgan (jinoiy beparvolik).

Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarining o‘zi qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida buzilishi mumkin.

**Qasddan zarar yetkazish** (masalan, o‘ch olish maqsadida piyodani urib yuborish) shaxsga qarshi jinoyatni tashkil etadi [10].

Yevropa mamlakatlari (Gollandiya, Germaniya va b.) olimlari o‘lim yoki og‘ir tan jarohati bilan tugagan YTHlar bo‘yicha jinoiy javobgarligini tahlil qilib, qachon qilmish qasddan, qachon ehtiyotsizlik hisoblanishi haqida ilmiy qarashlarini ilgari surishgan. Ularning fikricha, **tezlik**, **mastlik** kabi xatti-harakatlar qasddan xavf yaratish sifatida baholanishi lozim.

Yevropa, AQSH va musulmon olimlarining o‘lim yoki og‘ir tan jarohati bilan tugagan yo‘l-transport hodisalarida jinoiy javobgarlik masalasiga doir ilmiy qarashlarida yo‘l-transport hodisalari natijasida shaxsning vafot etishi yoki tan jarohati olishi jinoyat huquqida murakkab baholanadigan holatlardan biri sifatida baholashadi.

Bunda asosiy masala sodir etilgan qilmishning qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan sodir etilganligini aniqlashdan iborat. Yevropa mamlakatlari, Amerika Qo‘shma Shtatlari hamda musulmon huquqshunos olimlari mazkur masalada turli huquqiy tizimlarga asoslangan holda ilmiy yondashuvlarni ilgari surishgan.

Yevropa jinoyat huquqi tizimida yo‘l-transport hodisalari bo‘yicha javobgarlikni belgilashda shaxsning ruhiy munosabati (qilmishga bo‘lgan ichki munosabati) hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yevropa olimlarining ilmiy qarashlariga ko‘ra, yo‘l-transport hodisasi qasddan sodir etilgan deb baholanishi uchun haydovchi: jabrlanuvchini urib yuborishni ongli ravishda maqsad qilgan bo‘lishi; yoki o‘lim yoki og‘ir tan jarohati kelib chiqishini oldindan bilgan holda, bunday oqibatga ongli ravishda rozi bo‘lib harakatni davom ettirgan bo‘lishi lozim.

Bunday holatda haydovchi o‘limni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xohlamasa ham, uning yuz berishini bilgan va bunga yo‘l qo‘ygan bo‘ladi. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda bu holat bilvosita qasd sifatida baholanadi.

Yevropa mamlakatlarida o‘lim yoki og‘ir tan jarohati bilan tugagan yo‘l-transport hodisalarining aksariyati ehtiyotsizlik bilan sodir etilgan jinoyat sifatida baholanadi. Bunda:

haydovchi o‘limni yoki tan jarohatini xohlamaydi;

biroq yo‘l harakati qoidalarini buzadi, beparvolik qiladi yoki yetarli ehtiyot choralarini ko‘rmaydi;

natijada ijtimoiy xavfli oqibat yuz beradi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, bu holatda haydovchi natijani oldindan ko‘rishi mumkin va ko‘rishi shart bo‘lgan shaxs sifatida baholanadi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida ham yo‘l-transport hodisalari bo‘yicha javobgarlik masalasi shaxsning ichki ruhiy holatiga qarab belgilanadi, biroq baholashda beparvolik darajasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Amerikalik olimlar fikriga ko‘ra, agar haydovchi o‘limni maqsad qilib harakat qilgan bo‘lsa; yoki o‘lim yuz berishi deyarli aniq ekanini bilgan holda, bunday xavfni ongli ravishda qabul qilib harakatni davom ettirgan bo‘lsa, yo‘l-transport hodisasi qasddan sodir etilgan deb baholanishi mumkin.

AQSH ilmiy adabiyotlarida yo‘l-transport hodisalari odatda:

transport vositasini boshqarishda ehtiyotsizlik natijasida odam o‘ldirish;

transport vositasini beparvolik bilan boshqarish oqibatida o‘limga sabab bo‘lish sifatida baholanadi.

Bu yerda asosiy mezon shundan iboratki, haydovchi xavfni sezgan, lekin unga beparvo qaragan bo‘lsa — og‘ir ehtiyotsizlik;

haydovchi xavfni sezmagani, ammo sezishi shart bo‘lgan bo‘lsa — oddiy ehtiyotsizlik mavjud bo‘ladi. Har ikkala holatda ham qasd mavjud emas.

Islom huquqida yo‘l-transport hodisalari masalasi qotillik turlariga oid tasnif orqali tahlil qilinadi. Musulmon olimlar qotillikni uch turga ajratadilar:

Qasddan qotillik;

Yarim qasddan qotillik;

Xato bilan sodir etilgan qotillik.

Agar haydovchi shaxsni o‘ldirish niyatida transport vositasini unga qarata boshqarsa, musulmon olimlar buni qasddan qotillik deb baholaydilar. Bu holatda asosiy mezon — o‘limni maqsad qilishdir.

Ko‘pchilik musulmon olimlari yo‘l-transport hodisalarining aksariyatini o‘limni xohlamagan holda biroq ehtiyotsiz yoki qoidabuzarlik bilan harakat qilish oqibatida sodir bo‘lgan qilmish sifatida baholab, xato bilan sodir etilgan qotillik toifasiga kiritishadi.

Zamonaviy fiqh olimlari esa mast holda haydash, juda katta tezlik, ongli ravishda xavfli harakatlarni davom ettirish kabi holatlarni yarim qasddan sodir etilgan qotillik sifatida ilgari suradilar.

### **Xulosa**

Yevropa, Amerika va musulmon huquqshunos olimlarining qarashlarini umumlashtirib, quyidagi:

yo‘l-transport hodisalarida o‘lim yoki og‘ir tan jarohati yetkazish odatda ehtiyotsizlik bilan sodir etilgan jinoyat hisoblanadi;

qasddan sodir etilgan jinoyat sifatida baholash faqat o‘lim maqsad qilingan yoki uning yuz berishi ongli ravishda qabul qilingan hollarda qo‘llaniladi;

barcha huquqiy tizimlarda shaxsning ichki ruhiy munosabati, ya‘ni niyat, bilim va beparvolik darajasi asosiy mezon sifatida e‘tirof etiladi degan ilmiy xulosaga kelish mumkin.

Ba‘zi mamlakatlarda masalan, Turkiya va Koreyada yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatish erta boshlanadi — bolalar kitoblar va hatto sun‘iy chorrahalar orqali yo‘l harakati xavfsizligini o‘rganadi, bu esa haqiqiy xavfsizlik maktab partasidan boshlanishini ko‘rsatadi.

Singapur piyodalarga ustuvorlik beradigan shahar loyihasi bilan yetakchilik qilyapti, bu esa xavfsiz piyoda yurish xavfsizroq shaharlar asosini tashkil etishini isbotlaydi.

Koreyaning fuqarolar xabar beruvchi ilovalari va Malayziyaning yaxshi haydovchilarni rag‘batlantirish tizimlari jamoatchilikni jalb qilish ijobiy samara berishini ko‘rsatadi.

### **Iqtiboslar/Сноски/References:**

1. Доклад о решении задач в рамках Десуатилетиуа действий Организации Объединенных Наций по обеспечению безопасности дорожного движения (2011–2020 гг.) : итоги второй Глобальной конференции высокого уровня по безопасности дорожного движения-времуа длуу достижениуа результатов. (Progress report on the United Nations Decade of Action for Road Safety 2011–2020: Outcomes of the Second Global High-level Conference on Road Safety – Time to deliver) URL: [http://apps.who.int/iris/bitstream/handle/10665/253382/A69\\_R7-ru.pdf?sequence=1&isAllowed=y](http://apps.who.int/iris/bitstream/handle/10665/253382/A69_R7-ru.pdf?sequence=1&isAllowed=y) ; [http://apps.who.int/gb/ebwha/pdf\\_files/WHA69/A69\\_13-ru.pdf](http://apps.who.int/gb/ebwha/pdf_files/WHA69/A69_13-ru.pdf)
2. <https://yhxx.uz/uz/statistics/2022-yil-davomida-respublikamiz-yo'llarida-sodir-bo'lgan-yo'l-transport-xodisalari-bo'yicha-tahlil> (Elektron manba murojaat qilingan vaqt: 15.12.2025y)
3. <https://daryo.uz/k/2024/02/28/ozbekistonda-2023-yili-sodir-etilgan-98-mingta-avariya-oqibatida-22-ming-kishi-vafot-etgan> (Elektron manba murojaat qilingan vaqt: 15.12.2025y)
4. <https://kun.uz/kr/82150439>
5. <https://regulation.adliya.uz/project/6370/15752?contentLang=uz>
6. Uголовnyi kodeks Japonii / nauch. ed.: A. I. Korobeev; per. s Japanese.: V. N. Eremin. SPb. : Law. Center-Press, 2002. S. 150 (Criminal codes of Japan / scientific ed.: A. I. Korobeev; per. s Japanese.: V. N. Eremin. St. Petersburg: Law. Center-Press, 2002. S. 150).
7. Уголовный Кодекс Республики Казахстан от 03 июля 2014 г. (действующауа редакциуа) // Ведомости Парламента Республики Казахстан. - 2020. - № 15 (Criminal Code of the Republic of Kazakhstan dated July 3, 2014 (current version) // Bulletin of the Parliament of the Republic of Kazakhstan. - 2020. - No. 15).
8. Рустамбаев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Особеннауа част / [Под общей ред. А.А. Палван-Заде] – Т.: ИПТД «Адолат», 2016 (Rustambayev M.Kh. Commentary on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. Special part / [Under the general editorship of A.A. Palvan-Zade] – T.: IPTD “Adolat”, 2016).
9. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharxlar. Maxsus qism – Toshkent: Adolat, 2016. (Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. Special part - Tashkent: Adolat, 2016)
10. Рустамбаев М.Н. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksigahlar. Maxsus qism 3. “Yuridik adabiyotlar publish”. –Тошкент, 2024. – Б.499. (Rustambaev M.N. Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. Special part 3. "Publish legal literature". - Tashkent, 2024. - 3.499.)

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000